



# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel


## Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - **2910,9 mlrd. so'm.**
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 124,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 781,1 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan oshirish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, shuningdek, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga olib keladi.


Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2910,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (45,1 %), moliyaviy xizmatlar (24,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (21,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (14,8 %)da yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,7 %), transport xizmatlari (27,5 %), moliyaviy xizmatlar (9,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) egallaydi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi, %

Savdo xizmatlari	31,7 %
Transport xizmatlari	27,5 %
Moliyaviy xizmatlar	9,3 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,8 %
Shaxsiy xizmatlar	4,3 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,9 %
Ijara xizmatlari	3,7 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,9 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,9 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,4 %
Boshqa xizmatlar	2,3 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	0,9 %

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 781,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1% ni tashkil etdi.



Viloyat statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Mas'ul: A.Abdullayev  
(71) 230-85-35